



YANGI AVLOD ONA TILI DARSLIKLARIDA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISH TOPSHIRIQLARINING PEDAGOGIK TAHLILI

Yusufova Arofat Vali qizi,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat özbek tili va adabiyoti universiteti
talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston umumta'liz maktablari uchun ishlab chiqilgan yangi avlod ona tili darsliklarida yozma nutqni shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda topshiriqlar turlari, ularning sinflar kesimidagi murakkablik darajasi, vazifalari va o'quvchining muloqot kompetensiyasiga ta'siri o'r ganiladi. Shuningdek, topshiriqlarning shaxsiy fikr bildirish, ijodiy tafakkurni rivojlanish va matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli empirik kuzatuvlar asosida baholanadi. Natijalar yangi darsliklar tarkibida yozma nutq topshiriqlarini takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ona tili darsligi, yozma nutq, pedagogik tahlil, ijodiy topshiriq, kompetensiyaviy yondashuv, o'quvchi nutqi, matn tuzish.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi ta'liz tizimida so'nggi yillarda amalgam shirilayotgan islohotlar doirasida umumta'liz fanlari bo'yicha darsliklar va metodik qo'llanmalar yangilanishi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ayniqsa, ona tili fani bo'yicha ishlab chiqilgan yangi avlod darsliklarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Yozma nutq — o'quvchining fikrini izchil, mantiqiy, grammatik jihatdan to'g'ri hamda uslubiy jihatdan aniq ifoda eta olish ko'nikmasi sifatida, uning umumiyligi nutqiy va ijtimoiymadaniy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy ta'lizning asosiy yo'naliishlaridan biri sifatida kompetensiyaviy yondashuv yozma nutqni rivojlanishda ham o'z aksini topmoqda. Shu munosabat bilan, ona tili darsliklariga kiritilgan ijodiy topshiriqlar, bahsli savollar, matn



yaratishga qaratilgan mashqlar nafaqat til bilimlarini mustahkamlash, balki shaxsning tafakkur, muloqot va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada yangi avlod ona tili darsliklarida berilgan yozma nutq topshiriqlarining pedagogik tahlili amalga oshirilib, ularning o‘quvchilarda mustahkam yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Maqola pedagogik va metodik nuqtai nazardan yozilgan bo‘lib, mazkur topshiriqlarning shakli, mazmuni, bosqichlar bo‘yicha murakkablik darajasi hamda ularning amaliy samaradorligi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Yozma nutqni shakllantirishga oid adabiyotlar tahlili, mavzuning ilmiy-nazariy va metodik asoslari chuqur ishlab chiqilganini ko‘rsatadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan o‘quv dasturi [1] va Xalilova, Usmonova muallifligidagi yangi avlod darsliklari [2] yozma nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlarning kompetensiyaviy mazmunini ochib beradi.

D.R. Nazarova va S.A. Turaevalar o‘z maqolalarida matn strukturasini shakllantirish, ijodiy yondashuv, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari haqida asosli tahlillar bergen [3][4]. Bu fikrlar maqolada ilgari surilgan pedagogik xulosalarni mustahkamlaydi.

N. Qodirova metodik yondashuvlar, konstruktiv ta’lim va baholash tizimiga oid nazariy asoslar taqdim etgan [5]. Xorijiy adabiyotlardan Richards & Rodgers [6] hamda Harmer [7] tomonidan yozilgan qo‘llanmalar zamonaviy til o‘rgatish uslublari va yozma nutqni bosqichma-bosqich shakllantirish metodikasiga oid muhim manbalar hisoblanadi.


Asosiy qism. Yozma nutq — bu inson tafakkuri, bilimi va muloqot ehtiyojini ifodalovchi murakkab jarayon bo‘lib, u til vositalari orqali fikrni izchil, mantiqiy va aniq shaklda bayon qilishni talab etadi. Pedagogika va lingvistika sohalarida yozma nutq ko‘nikmasi shaxsning kommunikativ kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim bosqichida bu kompetensiyani shakllantirish tilni o‘rgatish jarayonining muhim vazifasidir.

Zamonaviy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilgan o‘quv dasturlari va darsliklarda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, izchil muloqot yuritishi, shaxsiy pozitsiyasini asoslangan holda ifoda etishiga alohida urg‘u berilmoqda. Yozma nutq kompetensiyasi shunchaki grammatik jihatdan to‘g‘ri matn tuzish emas, balki mazmuniy chuqurlik, matn tuzilishi, stilistik moslik va mantiqiy izchillik kabi bir qancha ko‘nikmalar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, yozma nutqni o‘rgatishda sintaktik, semantik va pragmatik kompetensiyalar birgalikda shakllanadi. Masalan, o‘quvchi matnni faqat grammatik jihatdan emas, balki mohiyatan aniq, maqsadga yo‘naltirilgan tarzda qurishga o‘rganadi. Bu esa tanqidiy fikrlash, muloqotga kirishish, madaniyatlararo aloqa yuritish kabi zamonaviy ta’lim maqsadlariga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yozma nutqni shakllantirish jarayonida o‘quvchining yosh xususiyatlari, psixologik tayyorgarligi ham e’tiborga olinadi. Masalan, 5–7-sinf o‘quvchilarida deskriptiv (tavsiflovchi), narroativ (hikoya tarzida) topshiriqlar ko‘proq samarali bo‘lsa, yuqori sinflarda esse, tanqidiy tahlil, muammoli matnlar bilan ishslash samaradorlik beradi.

Tilshunoslikda yozma nutqni rivojlantirish quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi:



1-rasm. Yozma nutqni rivojlatirish bosqichlari.



Demak, yozma nutqni rivojlantirish o‘z ichiga nazariy bilimlar, amaliy mashqlar, ijodiy yondashuv va metodik izchillikni olgan tizimli pedagogik jarayon bo‘lib, bu jarayonning darsliklardagi ifodasi asosli bo‘lishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida so‘nggi yillarda amalgalashirilayotgan o‘quv dasturlari va darsliklarni yangilash jarayonlari kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilmoqda. Ona tili fanidan ishlab chiqilgan yangi avlod darsliklarida, xususan, yozma nutqni rivojlantirishga oid topshiriqlar mazmuni va shaklida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoxda. Bu topshiriqlar o‘quvchining shaxsiy fikrini mustaqil, mantiqiy va izchil ifoda etish, matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish kabi maqsadlarga yo‘naltirilgan.

Topshiriqlar klassifikatsiyasi va ularning lingvovididaktik vazifalari. Yangi darsliklarda yozma nutqqa oid topshiriqlar quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

Deskriptiv topshiriqlar (tavsifiy) — hodisa, shaxs, predmet yoki voqelikni tasvirlash orqali nutqiy tafakkurni rivojlantirish;

Narrativ topshiriqlar (hikoya asosidagi) — voqelikni izchil va xronologik ketma-ketlikda bayon qilishni talab etadi;

Argumentativ topshiriqlar — fikr bildirish, dalillash, nuqtai nazarni asoslash orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;

Ijodiy topshiriqlar (esse, matn davom ettirish, erkin yozuv) — o‘quvchining o‘z g‘oyasi, shaxsiy pozitsiyasi, uslubiy va leksik tanlovlарini amalgalashirishiga zamin yaratadi.

Bu topshiriqlar o‘z mohiyatiga ko‘ra lingvovididaktik vazifalarni bajaradi, ya’ni: til birliklarini kommunikativ maqsadga muvofiq qo‘llash, matn tuzish mexanizmlarini egallash, kontekstual fikrlashga o‘rganish, uslubiy ongni shakllantirish va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish.

Sinf bosqichlariga ko‘ra murakkablik dinamikasi. Yozma nutq topshiriqlari sinflar kesimida bosqichma-bosqich murakkablashadi. 5–6-sinflarda ko‘proq ko‘chirma asosida, namunali yozuvga suyangan topshiriqlar ustun bo‘lsa, 9–11-sinflarda esse, muammoli vaziyatlar asosidagi tahliliy matnlar ustunlik qiladi. Bu esa



o‘quvchining psixologik va intellektual o‘sishini hisobga olgan holda kompozitsion va mazmuniy murakkablikni oshirishga xizmat qiladi.

1-jadval.

Quyidagi jadval sind bosqichlaridagi yozma topshiriqlar dinamikasini aks ettiradi

Sinf bosqichi	Dominant topshiriq shakli	Didaktik xususiyatlar
5–6-sinf	Tavsif, matn asosida hikoya	Reproduktiv, namuna asosidagi yozuvlar
7–8-sinf	Fikr bildiruvchi topshiriqlar	Mustaqil nuqtai nazar shakllanishi
9–11-sinf	Esse, tahliliy matnlar	Yaratmali yozuv, ijtimoiy fikrlash elementi

Pedagogik samaradorlik va metodik yondashuvlar. Yangi darsliklardagi yozma nutq topshiriqlari shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, muammoli o‘qitish, kritik fikrlashni rivojlantirish, differensial yondashuv kabi zamonaviy metodik prinsiplar asosida shakllantirilgan. Ular quyidagi pedagogik funksiyalarni bajaradi:

O‘quvchining shaxsiy tajribasi va dunyoqarashini hisobga olgan holda nutqiy ijodini rag‘batlantiradi;

Matn yaratishda mantiqiy izchillik, struktura va kompozitsion yaxlitlikka o‘rgatadi;

Tanqidiy yondashuvni shakllantirish orqali ijtimoiy faollikni oshiradi.

Amaliy misol: 6-sinf darsligidan tahlil. 6-sinf ona tili darsligidagi quyidagi topshiriqni misol tariqasida ko‘rib chiqamiz:

“Quyidagi rasm asosida hikoya tuzing. Hikoyada kim, qayerda, nima qildi degan savollarga javob bo‘lishi shart.”

Bu topshiriq orqali quyidagi lingvodidaktik maqsadlar amalga oshiriladi:

O‘quvchi matn yaratishda sabab-oqibat bog‘lovchilarini qo‘llashga o‘rganadi;

Matn strukturasini tushunadi: kirish, asosiy qism, xulosa;



Fikrni izchil bayon qilish orqali tafakkur, leksik boylik va muloqot ko'nikmalari rivojlanadi.

Kamchilik va takomillashtirish ehtiyoji. Darsliklarda ayrim sinflarda ijodiy topshiriqlar soni yetarli emasligi, ba'zan baholash mezonlarining aniqligi ta'minlanmagani kuzatiladi. Bu esa o'qituvchining subyektiv qaroriga olib kelishi, yozma nutqni mustaqil rivojlantirish imkonini cheklashi mumkin. Shuningdek, topshiriqlar orasida kommunikativ kontekst yetarli darajada aks ettirilmagan holatlar ham mavjud.

Natijalar. O'quvchilarning yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda darslikdagi topshiriqlarning pedagogik ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik tahlil ko'rsatadiki, yozma topshiriqlar nafaqat til o'rganish vositasi, balki shaxsiy fikrni erkin va mantiqiy ifoda qilish, tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, madaniy-ijtimoiy kompetensiyalarni mustahkamlash omili sifatida xizmat qiladi.

O'quvchining tafakkur va muloqot kompetensiyasiga ta'siri. Yozma nutq topshiriqlari orqali o'quvchi:

Tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi: masalan, "Bir fikrga munosabat bildiring" kabi topshiriqlar muammo yechimiga yo'naltiradi;

Muloqot kompetensiyasi rivojlanadi: o'quvchi matnni o'quvchi yoki tinglovchi uchun moslashtirib tuzishga o'rganadi;

Ijodiy tafakkur faollashadi: esse, hikoya, matn davom ettirish kabi mashqlar yangi g'oya va uslubiy yondashuvlar orqali shaxsiy fikrni ifoda qilish imkonini yaratadi.

Bu jarayonda o'quvchi o'z fikrini mantiqiy, izchil, maqsadga muvofiq va uslubiy jihatdan mos shaklda bayon qilishga o'rganadi. Bu esa nafaqat til fanidan, balki boshqa fanlardan ham samarali foydalanishga olib keladi.

Nutqiy ko'nikmalar va uslubiy ong shakllanishi. Yozma topshiriqlar o'quvchilarda quyidagi nutqiy tarkibiy komponentlarni shakllantiradi:

Grammatik moslik: gap bo'laklari, so'z tartibi, morfologik shakllar;

Matn tuzilishi: kirish, asosiy qism, yakuniy xulosa;



Bog‘lovchilik: sabab-oqibat, izohlovchi, qarama-qarshi bog‘lovchilarni to‘g‘ri qo‘llash;

Uslubiy moslik: matnning janri va maqsadiga mos leksik-semantik vositalarni tanklash.

Bu omillar yozma nutqni o‘rganishda sintaksis, semantika va pragmatikani uyg‘unlashtiradi. Shuningdek, har bir topshiriq o‘z ichida o‘quvchining intellektual mustaqilligini rag‘batlantiradi.

Ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalar. Yozma nutq topshiriqlari faqat til o‘rganish vositasi emas, balki kompleks ta’limiy vosita sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Funksiya turi Namuna va ta’sir yo‘nalishi

Ta’limiy Matn orqali til birliklarini mustahkamlash, fikr ifodasini o‘rganish

Tarbiyaviy Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida matn yozish (vatan, oila, mehnat haqidagi yozuvlar)

Rivojlantiruvchi Fikrni erkin ifodalash, tafakkurni kengaytirish, muloqot malakasini oshirish

Bunday topshiriqlarning psixologik va ijtimoiy ta’siri ham mavjud: o‘quvchi o‘z ichki kechinmalari, qarashlari va nuqtai nazarini og‘zaki emas, balki yozma shaklda ifodalash orqali nutq madaniyatini rivojlantiradi.

O‘quvchining motivatsiyasi va ishtirok darajasiga ta’siri. Ilmiy kuzatuvlari shuni ko‘rsatadiki, topshiriqlar qiziqarli, hayotiy va ijtimoiy kontekstda tuzilganida o‘quvchilarning yozishga bo‘lgan motivatsiyasi ortadi. Ayniqsa, ijodiy topshiriqlar (masalan, “Shaxsiy qahramoning haqida yoz”, “O‘zing boshdan kechirgan voqeani hikoya qil”) o‘quvchini shaxsiy tajribasini qayta ko‘rib chiqishga undaydi.

Motivatsiyaga ta’sir qiluvchi omillar quyidagilardan iborat:

Topshiriqnинг o‘quvchining dunyoqarashi bilan bog‘liqligi;

Erkinlik va tanlov imkoniyatining mavjudligi;

Baholashning ochiqligi va adolatliligi;

O‘qituvchining konstruktiv fikr-mulohazalari va rag‘batlantiruvchi yondashuvi.



Empirik asos: dars kuzatuvlari va tahlillar. 2023–2024 o‘quv yilida ayrim umumta’lim maktablarida olib borilgan amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, yozma nutqqa oid topshiriqlarni samarali bajarayotgan o‘quvchilar umumiyligi muloqotda ham faolroq, erkinroq va izchil fikr yuritadi. Aksincha, namunaviy matnlarga ortiqcha bog‘langan o‘quvchilar esa ijodiy va mustaqil fikr bildirishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Bu esa metodik yondashuvni diversifikatsiyalash zaruratini ko‘rsatadi.

Xulosa. Yozma nutqni rivojlantirish umumta’limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida o‘quvchilarning muloqot madaniyati, tafakkur kengligi, ijodkorlik salohiyati va shaxsiy nuqtai nazarini shakllantirishga bevosita xizmat qiladi. Yangi avlod ona tili darsliklarida bu maqsadga erishish yo‘lida topshiriqlarning shakli va mazmuni tubdan yangilangan bo‘lib, ularning lingvodidaktik va pedagogik ahamiyati yuqori baholanishi mumkin.

O‘tkazilgan pedagogik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, topshiriqlar o‘quvchilarda yozma nutq kompetensiyasining barcha tarkibiy jihatlarini – grammatik, matnshunoslik, stilistik va kommunikativ ko‘nikmalarni – shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, topshiriqlarning ijtimoiy mazmuni, tanqidiy va ijodiy fikrlashga yo‘naltirilganligi, o‘quvchining shaxsiy tajribasini aks ettirish imkoniyati ularning samaradorligini oshiradi.

Shunga qaramay, ayrim sinflarda yozma topshiriqlarning faqat reproduktiv xarakterda bo‘lishi, baholash mezonlarining yetarli darajada ochiqlanmagani, kommunikativ kontekstning kamligi kabi metodik cheklowlar mavjud. Bu esa kelgusida darsliklarni takomillashtirishda muhim omil sifatida e’tiborga olinishi lozim.

Maqola natijalariga tayangan holda quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Yozma topshiriqlar turlarini differensial va bosqichma-bosqich yondashuv asosida takomillashtirish;
2. Baholash mezonlarini aniq va shaffof qilib belgilash;
3. Kommunikativ va interaktiv yozuv vaziyatlarini ko‘proq kiritish;
4. O‘quvchilarning shaxsiy hayot tajribasini aks ettirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar sonini ko‘paytirish;



5. Har bir topshiriq uchun o‘qituvchi uchun metodik yo‘riq va baholash mezonlarini biriktirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Ona tili fanidan umumta’lim maktablari uchun o‘quv dasturi (5–11-sinflar). – Toshkent, 2021.
2. Xalilova G., Usmonova M. Ona tili darsligi: 6–9-sinflar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021–2023.
3. Nazarova D. R. Nutq madaniyati va yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish usullari, Til va adabiyot ta’limi. – 2022. – №2. – B. 65–72.
4. Turaeva S. A. Yozma nutqni o‘qitishda ijodiy topshiriqlarning ahamiyati, Pedagogik izlanishlar. – 2023. – №4. – B. 51–57.
5. Qodirova N. Yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda zamonaviy metodik yondashuvlar, Filologiya fanlari. – 2022. – №1. – B. 38–44.
6. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
7. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London: Pearson Longman, 2007.